



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЧИСИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШ УСУЛЛАРИ

*Irisova S.*

*QVPYMO 'MM katta o'qituvchisi*

**Tayanch soʻzlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachining mashg'ulotga tayyorgarlik moduli, integrallashgan mashg'ulot, kasbiy kompetentlik.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, модуль подготовки педагога, интегрированное обучение, профессиональная компетентность.

**Key words:** preschool education, teacher training module, integrated learning, professional competence.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo'lgan va uning poydevorini tashkil qiluvchi maktabgacha ta'lim hozirgi kunda ta'lim sifati va samaradorligini belgilashda asosiy o'rin egallaydi. Snu munosabat bilan maktabgacha ta'lim zamonaviy talablar asosida bo'lishi jiddiy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida yaratilayotgan shart-sharoitlar yangi texnologiyalar asosida pedagogik jarayonni tashkil etish usullarini izlash, ta'lim tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini oshirish dolzarbligini ko'rsatmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi bevosita pedagogning kasbiy darajasiga bog'liq bo'lib, u ma'lum bir dastur va pedagogik jarayonda yuzaga keladigan maxsus vaziyatlarni yengish imkonini beradigan ommabop va o'ziga xos kasbiy munosabatlar yig'indisi sifatida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan



Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdaagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori, Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdaagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-son buyrug‘ida maktabgacha ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalar belgilab o‘tilgan.

Kompetensiya bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy xususiyatlar va muayyan faoliyat sohasi bo‘yicha tajribalar to‘plamini ifoda etadi. Kompetentlik – shaxsning umumlashgan qobiliyatlari, kompetensiyaning hayotda namoyon bo‘lishi. Kompetensiya – bu shaxsning bilim va tajribani egallashi bilan bog‘liq masalalar ko‘lami, kompetentlik – kompetensiyalarga ega bo‘lish. Kompetentlik – hayotiy va kasbiy vazifalarga yechim topishga layoqatlilik, mas’uliyatli hayotiy harakatlarni amalga oshirish qobiliyati, olam va jamiyat bilan faol hamkorlik qilish, hamkorlik davomida o‘zini va olamni anglash hamda o‘zgartirish qobiliyati. Bu xabardorlik, insonda tahlil qilish, xulosa chiqarish va samarali qarorlarni qabul qilish, ularni tadbiiq etishdir.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish ijodiy individuallikni rivojlantirish, pedagogik yangiliklarga sezgirlikni shakllantirish, o‘zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatidir. MTT tarbiyachisi kasbi o‘zining serqirraligi bilan ahamiyatlidir. Ta’lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish tarbiyachidan innovatsion fikrlash uslubi, ijodiy qobiliyat rivoji, keng dunyoqarash, estetik va nutq madaniyatiga yuqori darajada egalikni talab etadi. Buning asosini esa MTT tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasi tashkil etadi. Hech qanday texnik vositalar pedagogning jonli muloqoti, uning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va tashkilotchilik vazifalari o‘rmini egallay olmaydi. Tarbiyachida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni rejalashtirish, ta’lim faoliyatni samarali tashkil etish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bizning viloyat pedagoglarni yangi metodiklarga o‘rgatish milliy markazida ham bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha va boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrası, MTT tarbiyachilari malakasini oshirish kursi tinglovchilari bilan MTT tarbiyachilarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida har oyda Mahorat darsi tashkil etilmoqda.

Mahorat darsiga tayyorgarlik jaryonida tinglovchilar mashg‘ulotlarning tarbiyachi tomonidan tayyorgarlik modulini tayyorlashni o‘rganadilar va modul asosida mashg‘ulot ishlanmasi tayyorlash vazifalari amaliy darslarda olib borilmoqda. Bu vazifalar tinglovchilar uchun qiziqarli hamda maktabgacha



ta'limda interfaol usullarni qo'llab mashg'ulot tashkil etishni o'rganishga imkon bermoqda.

Interfaol usullarni qo'llagan holda tayyorlov guruhida mujassam mashg'ulotning tarbiyachi tomonidan tayyorgarlik moduli va mashg'ulot ishlanmasidan namuna keltiramiz:

Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorgarlik moduli.

<b>Bilish jarayoni rivojlantirish. Atrof-olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish va uni anglash</b> Mashg'ulot mavzusi: Tog'lar haqida suhbat.	
Mavzu maqsadi: Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirib borish, tog'lar haqidagi tasavvurlarni shakllantirib borish, lug'at boyligini oshirish, bolalar o'rtasida do'stona munosabatni shakllantirish. Mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	Bolalar egallashi lozim bo'lgan asosiy g'oya va tushunchalar: Tog'lar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; Tog'larning tabiati, o'simlik va mevalarni bilib oladilar; Geolog, alpinist so'zlari va ularning ma'nolarini anglaydilar; O'yinlar orqali xursandchilikni his qiladilar va guruhlarga bo'linadilar; Faollik markazlarida hamkorlikda ishlashni o'rganadi va ijod qiladilar;
Mashg'ulotning texnologik xaritasi: Tog'lar haqida nimalarni bilamiz? «Aqliy hujum»-5 daqiqa Tog'lar haqida suhbat. Slayd-shou-15 daqiqa. Enerjayzer «Tog' mevalari»-3 daqiqa. «Kichik guruhlarda ishlash». (Faollik markazlarida amaliy ishlash)-12 minut. Taqdimot-5 minut. Refleksiya-3 daqiqa	Mashg'ulot uchun kerakli jihozlar: bolalar soniga yetarli ip, plastilin, rangli qog'oz, qaychi, kley, gazlama qiyqimlari, slayd materiallari, stepler, «Do'kon-do'kon» o'yini uchun oziq-ovqat mahsulotlar, globus sharchalar.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, men hozir sizlarga topishmoq aytaman:

U baland-baland joylardir,

Archalarga makondir.

Tuyalar o'rkachiga o'xshaydi,

Tekislikni o'z ichiga qo'shmaydi.

Qani javobini topingchi?

Bolalarning javoblari:



-Archa, -Yo‘q, -Tuya, -Yo‘q, -Tog‘

Tarbiyachi: -Barkalla. Bu tog‘ edi.

«Aqliy hujum»

Tarbiyachi: -Bolalar sizlar tog‘lar haqida nimalarni bilasiz.

Bolalarning javoblari:

Tarbiyachi: -Ha sizlar to‘g‘ri aytingdizlar. Tog‘lar baland bo‘ladi. Nozimaxon oila a‘zolari bilan tog‘ sayliga chiqqanligini chiroyli ifodalab berdi, barkalla.

Tarbiyachi: -Hozir bir siz bilan «Sehrli tog‘» mashqini bajaramiz. Buning uchun siz stol ustidagi iplardan tog‘ shaklini yasaymiz. Barakalla, hammangiz tog‘ni to‘g‘ri tasvirladingiz. Endi esa, cho‘qqisi baland tog‘lar yasaymiz. Qani ko‘raylikchi, barkalla, to‘g‘ri bajardingiz.

Bolalar endi yasaydigan tog‘ enliroq bo‘lsin.

Tarbiyachi bolalar ishlarini kuzatadi va rag‘batlantirib boradi.

Tarbiyachi: Bolalar «Sehrli tog‘» mashqi sizga yoqdimi.

Bolalarning javoblari:

Tarbiyachi: Hozir men sizlarga tog‘lar haqida so‘zlab bermoqchiman.

Slayd materiallari orqali suhbat olib boriladi.

Bolalar bilasizmi?, Yer yuzi quruqlik va suvlardan tashkil topgan, buni mana bu globusga qarab o‘rganamiz. Globus-yerning kichraytirilgan ko‘rinishi. Globusda quruqlik sariq rangda, suvlar esa ko‘k rangda ko‘rsatilgan. Bolalar stol ustidagi har bir bola uchun qo‘yilgan globus to‘pchalari bilan tanishadilar.

Tarbiyachi: Bolalar globus sharchalaridagi quruqlikga e‘tibor bering. Quruqlikda tekis yerlar va tog‘lar bor. Hozir men sizlarga tog‘lar haqida so‘zlab beraman.

Tog‘lar balandligiga qarab har xil bo‘ladi. Baland tog‘lar, o‘rtacha tog‘lar va past tog‘lar.

Yer yuzidagi eng baland tog‘ Himolay tog‘i hisoblanadi.

(Tog‘lar slayd orqali ko‘rsatiladi.)

O‘zbekistonda Tyanshan va Hisor-Oloy tog‘lari joylashgan.

Nurota tog‘ tizmasi Navoiy viloyatda joylashgan. Bizning Qashqadaryo viloyatimizda Hisor, Qo‘ng‘irtog‘, Zarafshon tog‘lari joylashgan.

Tog‘larning tabiati bahor faslida juda go‘zal boladi. Chunki, tog‘da birinchi bo‘lib lola guli ochiladi. Dorivor o‘simliklardan zira, kiyik o‘ti, yalpiz, mevali daraxtlardan bodom, pista, do‘lana daraxtlari o‘sadi.

Tog‘larda har xil qazilma boyliklari bo‘lib, bularni izlab turuvchilar geologlar deb ataladi.

Tog‘lardan eng baland cho‘qqilarini zabt etuvchilar apinistlar deb ataladi. Alpinistlar tog‘lardan tog‘larda uzoq vaqt yurganligi uchun o‘zlariga kerakli bo‘lgan oziq-ovqat va kerakli buyumlarni ryukzak (safar xalta)da olib yuradilar.



Bolalar tog‘lar haqidagi ma’lumotlarni bilib oldingiz. Hozir siz bilan qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz, bu o‘yinning nomi «Tog‘ mevalari» deb nomlanadi.

Xulosa o‘rinda shuni aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ta’lim-tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan uyg‘unligini ta’minlash prinsipiga qat’iy amal qilish kerak. Bola rivojiga individual yondashuv, shaxsiyatini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, his-tuyg‘ularini e’tiborga olish zarur. Shu asosda tarbiyachilarning tarbiyaviy ishlarining mazmuni, shakllari, vositalari va metodlarini o‘zlashtirishlariga erishiladi. Tarbiyachilar bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish metodlarini ham egallashlari lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachilar oldiga qo‘yiladigan vazifalar murakkab va ko‘p qirralidir. Shuning uchun ham tarbiyachilarda ilmiy dunyoqarash asoslari, yuksak ma’naviy xislatlar, jamoa, jamiyatda o‘zini tuta bilish ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish sohasida tizimli tarzda ish olib borish talab etiladi. MTT tarbiyachilari kasbi bo‘yicha egallagan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni amaliyotga qo‘llay olishi qobiliyati, layoqati va kasbiy muammolarni mustaqil hal qila olishlari lozim. Shuningdek, ular mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishi, yangi axborotlarni o‘rganishi, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishi, yangi ma’lumotlarni izlab topishi, ularni qayta ishlasho va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishi talab etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
3. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018.
4. Takomillashgan “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2022.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

#### РЕЗИОМЕ

Maqolada integrallashgan mashg‘ulot tashkil etish hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligini oshirish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

#### РЕЗИОМЕ

В статье показаны методы организации интегрированного обучения и повышения профессиональной компетентности педагога дошкольной образовательной организации

#### SUMMARY

The article shows methods for organizing integrated learning and improving the professional competence of a teacher in a preschool educational organization